

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Musurmonova Zuxra

*Annotation:* uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim, barcha bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu maqolada inklyuziv ta'larning pedagogik va psixologik bosqichlari batafsil tahlil qilinadi.

*Inklyuziv ta'lim tizimi barcha bolalarning o'z potensialini to'liq ochishga yordam beruvchi muhitni yaratishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligi muhimdir.*

*Kalit so'zlar:* inklyuziv ta'im, uzluksiz ta'lim, pedagogik bosqichlar, psixologik bosqichlar, individual yondashuv, ta'lim jarayoni, o'qitish metodlari, baholash va monitoring, ota-onalar roli, hamkorlik faoliyati, guruh ishlari, ta'lim muassasalari.

**Аннотация:** инклюзивное образование в системе непрерывного образования – это подход, направленный на обеспечение права всех детей на образование. В данной статье подробно анализируются педагогический и психологический этапы инклюзивного образования.

Система инклюзивного образования направлена на создание среды, которая помогает всем детям полностью раскрыть свой потенциал, и в этом процессе важно взаимное сотрудничество учителей, родителей и общества.

**Ключевые слова:** инклюзивное питание, непрерывное образование, педагогические этапы, психологические этапы, индивидуальный подход, образовательный процесс, методы обучения, оценка и мониторинг, роль родителей, совместная деятельность, групповая работа, образовательные учреждения.

**Abstract:** Inclusive education in the continuous education system is an approach aimed at ensuring the right of all children to education. This article analyzes in detail the pedagogical and psychological stages of inclusive education.

The inclusive education system is aimed at creating an environment that helps all children to fully realize their potential, and in this process, the cooperation of teachers, parents and the community is important.

**Key words:** inclusive education, continuous education, pedagogical stages, psychological stages, individual approach, educational process, teaching methods, assessment and monitoring, the role of parents, cooperative activities, group work, educational institutions.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutadi:

- alohida ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar);
- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlash va boshqalar. Inklyuziv ta'lim – bu barcha

bolalarning turli xil ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta’lim mavjudligini nazarda tutadigan umumiyligini ta’limning rivojlanish jarayoni, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limning tamoyillari:

- insonning qiymati uning qobiliyatlari va yutuqlariga bog‘liq emas;
- har bir inson his qilish va fikrlashga qodir;
- har kim muloqot qilish va tinglash huquqiga ega;
- barcha odamlar bir-biriga muhtoj;
- haqiqiy ta’lim faqat haqiqiy munosabatlar sharoitida amalga oshirilishi mumkin;
- barcha odamlar tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlashi va do‘stligiga muhtoj;
- barcha o‘quvchilar uchun muvaffaqiyatsizlikka qaraganda, ular qila oladigan narsalarga
- erishish ehtimoli ko‘proq;
- turli xillik inson hayotining barcha jahbalarini yaxshilaydi.
- Inklyuziv ta’lim tizimiga uzluksiz ta’lim tizimi tashkilotlari kiradi.

Inklyuizv bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha va maktab ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlanishi va yanada yuksaltirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni va logopediya shoxobchalarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.
- maktabgacha va maktablarda inklyuziv ta’lim, defektologik xizmatni takomillashtirish, o‘qituvchi-logopedlar, maxsus pedagoglarni metodik qo‘llab-quvvatlash va professional rivojlantirishga ko‘maklashish;

- umumta'lim muassasalarida inklyuziv o'quv muhitini yaratish maqsadida bolalar va ularning ota-onalari, o'qituvchilarga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatishda
- zamonaviy yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish;
- inklyuziv ta'limga yanada rivojlanishini nazarda tutadigan davlat dasturlari va
- boshqa dasturlar, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha rahbariyatga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;
- umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limga uchun shart-sharoitlar yaratishni nazorat qilish, inklyuziv ta'limga berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini nazorat qilish.

Respublikamizda uzluksiz ta'limga sifatini ta'minlash, ta'limga oluvchilarni ijtimoiy himoyalash va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ijtimoiy, jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti (O'zPFITI) direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinnbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor. Uzluksiz ta'limga – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbiri ni taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'limga tizimi hisoblanadi. Uzluksiz ta'limga tizimi zamonaviy jamiyatda insonning rivojlanishi va ta'limga olish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'limga esa, barcha o'quvchilarining, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limga olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida yaratilgan. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limga pedagogik va psixologik bosqichlari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limga amalga oshirish uchun ta'limga muassasalari qulay sharoitlarga ega bo'lishi kerak. Bu, avvalo, o'qituvchilarining maxsus tayyorligini talab etadi. O'qituvchilar inklyuziv yondashuvni tushunishi va turli xil o'quvchilarini bir xil muhitda o'qitish uchun zarur metodlarni qo'llay olishlari kerak. Inklyuziv ta'limga o'qitish metodlari individual yondashuvni o'z ichiga oladi. O'quvchilarining turli ehtiyojlariga mos ravishda darslar

rejalashtirilishi va o'tkazilishi lozim. Bu jarayonda guruh ishlari, kooperativ ta'lim va faol o'qitish metodlari samarali hisoblanadi. O'quvchilarning yutuqlarini baholashda inklyuziv ta'limda individual yondashuvga asoslangan baholash tizimlari qo'llanilishi kerak. Bu o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalgalash oshiriladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsiyonal holati muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilishlari va ijtimoiy integratsiyaga erishishlari uchun pedagoglar tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlash zarur. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish inklyuziv ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilarga qiziqarli va foydali faoliyatlar taklif etish orqali ularning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin. Ijtimoiy integratsiya inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish, ularga bir-birini qabul qilish va hurmat qilishni o'rgatish zarur.

Uzluksiz ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning pedagogik va psixologik bosqichlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olish, ularni qo'llab-quvvatlash va motivatsiyasini oshirish orqali inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiyadolat va tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta'limning muammolari va istiqbollari Xalq ta'limi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014 yil 3 son
2. Muzaffarova X.N., Tursunqulova O. Inklyuziv ta'limni amaliyatga joriy qilish masalalari zamonaviy taraqqiyotda ilm-fan va madaniyatning o'rni nomli respublika ilmiy amaliy konferentsiyasi 20.06. 2021yil
3. Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim. Xalqaro va milliy tajribalar. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. —Chashma print.